



KOGNITIV QOBILIYATLARNING TA'LIM JARAYONIDAGI O'RNI

Tajiyeva Shahnoza Saporbayevna

Urganch Ranch Texnologiyalar Universiteti pedagogika va filologiya fakulteti pedagogika mutaxassisligi I-bosqich magistranti, Urganch tuman 2-son Politeknikum psixologi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14825009>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 01- Fevral 2025 yil

Ma'qullandi: 03- Fevral 2025 yil

Nashr qilindi: 06-Fevral 2025 yil

KEY WORDS

kognitiv qobiliyat, xotira, diqqat, tafakkur, sezgi, innovatsion metodlar

ABSTRACT

Ushbu tezisda kognitiv qobiliyatlarning ta'lim jarayonidagi o'rni, kognitiv qobiliyatlarning turlari va kognitiv qobiliyatlarni rivojlantirish masalalari haqida bayon qilingan.

Kognitiv qobiliyatlar ta'lim jarayonining ajralmas qismi bo'lib, o'quvchilarning o'rganish va rivojlanish jarayonida muhim rol o'ynaydi. Kognitiv qobiliyatlar, yoki aqliy faoliyat, o'quvchilarning ma'lumotlarni qabul qilish, qayta ishlash, saqlash va ulardan foydalana olish qobiliyatini anglatadi. Ushbu qobiliyatlar ta'lim jarayonida o'quvchilarning o'z-o'zini boshqarishiga, mustaqil fikrlashiga va muammolarni hal qilish qobiliyatini yaxshilashga yordam beradi. Kognitiv qobiliyatlarning rivojlanishi o'quvchilarga murakkab ma'lumotlarni tushunishga yordam beradi, shuningdek, tanqidiy fikrlash va ijodkorlikni oshiradi. Ta'lim jarayonida kognitiv qobiliyatlarni rivojlantirish o'quvchilarning kelajakdagi muvaffaqiyatlariga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Kognitiv psixologiya ham ta'lim jarayonida muhim rol o'ynaydi. XX-asrning o'rtalarida boshlanadigan kognitiv inqilob, inson aqlining ishlashini tushunish va tadqiq etishga qaratilgan. Jean Piaget va Lev Vygotsky kabi olimlar o'quv jarayonida kognitiv qobiliyatlarning rivojlanishi va ahamiyatini o'rganishgan. Ularning nazariyalari ta'limda kognitiv qobiliyatlarni rivojlantirish uchun yangi yondashuvlar yaratishga imkon berdi. Hozirgi kunda kognitiv qobiliyatlar bo'yicha tadqiqotlar davom etmoqda. O'quvchilarni o'qitish va kognitiv qobiliyatlarini rivojlantirish uchun innovatsion metodlar va vositalar ishlab chiqilmoqda. Misol uchun, multimedia ta'limi va o'yin asosidagi o'qitish kognitiv qobiliyatlarni oshirishga yordam beradi. Shuningdek, kognitiv qobiliyatlar va akademik muvaffaqiyat o'rtasidagi bog'liqlikni o'rganish uchun ko'plab tadqiqotlar olib borilmoqda. Kognitiv rivojlanish talabalarning o'rganish yondashuvlari bilan bog'liq, ammo ta'lim oluvchilar turli muhitlarda kognitiv jihatdan har hil rivojlanishi mumkin. Chjan va Uotkins ma'lumotlariga ko'ra, amerikalik va xitoylik talabalar o'rtasida kognitiv rivojlanishda farq borligi aytilgan. Kognitiv qobiliyatlarning ta'lim jarayonida qo'llanilishi bilan bog'liq muammolar mavjud. Birinchidan, har bir o'quvchining kognitiv qobiliyatlari individualdir, shuning uchun umumiy yondashuvlar hamma uchun samarali bo'lmasligi mumkin. Ikkinchidan, ta'lim tizimlarida kognitiv qobiliyatlarni o'lchash va baholash uchun aniq metodologiyalar yetishmaydi. Bu, o'z navbatida, ta'lim jarayonida kognitiv qobiliyatlarni rivojlantirishda qiyinchiliklarga olib keladi. Kognitiv qobiliyatlar ta'lim jarayonida muhim ahamiyatga ega, shuning uchun ularni o'rganish va rivojlantirish zarur.

Asosiy qisim: Ushbu tadqiqotda kognitiv qobiliyatlarning turlari va ularni rivojlantirish usullari haqida chuqur tahlil o'tkaziladi. Kognitiv qobiliyatlarning ta'lim jarayonidagi o'rni va ahamiyatini tushunish, o'quvchilarning o'z-o'zini boshqarishiga va mustaqil fikrlashiga yordam beradi. Shuningdek, kognitiv qobiliyatlarni rivojlantirish uchun yangi metodlar ishlab chiqish va mavjud qiyinchiliklarni yengish zarur.

Kognitiv qobiliyatlarning asosiy turlari orasida eslab qolish, diqqat, muammoni hal qilish va o'rganish jarayoni mavjud. Esab qolish qobiliyati o'quvchilarning o'zlashtirilgan ma'lumotlarni saqlash va qayta ishlashda muhim ahamiyatga ega. O'quvchilarning diqqatini jalb qilish va ma'lumotlarni ajratish qobiliyati, o'z navbatida, o'rganish jarayonini samarali olib borishga yordam beradi. Muammoni hal qilish qobiliyati esa, o'quvchilarning real hayotdagi muammolarni aniqlash va ularga yechim topishdagi muvaffaqiyatini ko'rsatadi.

Kognitiv qobiliyat: ta'lim jarayonida o'quvchilarning o'z-o'zini boshqarishiga va mustaqil fikrlashiga yordam beradi. Ular o'quvchilarga murakkab ma'lumotlarni tushunishga, tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga va ijodkorlikni oshirishga imkon beradi. Misol uchun, o'quvchilar yangi ma'lumotlarni o'zlashtirish jarayonida kognitiv qobiliyatlarini rivojlantirish orqali o'z fikrlarini mustaqil ravishda shakllantira olishi va o'z bilimlarini amaliyotga tatbiq eta olishlari mumkin.

Kognitiv qobiliyatlar ta'lim jarayonida o'quvchilarning muvaffaqiyatini belgilovchi asosiy omillardan biridir. Ularning rivojlanishi o'quvchilarga akademik muvaffaqiyatga erishishda yordam beradi va kelajakda o'z kasbida muvaffaqiyatli bo'lishlariga xizmat qiladi. Ta'lim jarayonida kognitiv qobiliyatlarni rivojlantirish orqali o'quvchilar o'zlarining intellektual salohiyatlarini to'liq ochish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Kognitiv qobiliyatlar haqida tushuncha o'quvchilarning o'z-o'zini rivojlantirishlariga xizmat qiluvchi asosiy poydevor hisoblanadi. O'qituvchilar va ta'lim tizimlari kognitiv qobiliyatlarni rivojlantirishga e'tibor qaratishi kerak, chunki bu nafaqat o'quvchilarning akademik muvaffaqiyatini ta'minlaydi, balki ularning shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishiga ham yordam beradi. Kognitiv qobiliyatlarni rivojlantirish uchun innovativ metodlar va vositalarni qo'llash, o'quv jarayonida yangilik va ijodkorlikni oshirishda muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, kognitiv qobiliyatlarni rivojlantirish jarayonida o'quvchilarning individual ehtiyojlari va imkoniyatlarini inobatga olish lozim. Har bir o'quvchining kognitiv qobiliyatlari turlicha bo'lishi sababli, ta'lim jarayonida shaxsiylashtirilgan yondashuvlarni amalga oshirish muhimdir. Bu o'quvchilarning o'z qobiliyatlarini to'liq ochishlariga, o'rganish jarayonida yanada samarali bo'lishlariga yordam beradi.

Kognitiv qobiliyatlar, aqlning turli jihatlaridan kelib chiqib, insonning muammolarni hal qilish, ma'lumotlarni o'zlashtirish va ijodkorlikni rivojlantirish kabi qobiliyatlarini ifodalaydi.

Kognitiv qobiliyatlar turlarga bo'linadi, va ularning har biri ta'lim jarayonida alohida ahamiyatga ega.

Birinchidan, eslab qolish qobiliyati o'zlashtirilgan ma'lumotlarni saqlash va ularni qayta ishlash qobiliyatidir- bu xotira jarayonlari bilan bog'liq tushuncha.

Xotira: biz ilgari idrok qilgan, boshdan kechirgan va bajargan ishlarimizni yodda saqlash, keyinchalik ularni eslash yoki xotirlash jarayonidir. Xotira faoliyatida shaxsning g'oyaviy yo'nalishi katta o'rin egallaydi. E.G'. G'oziyev xotira tushunchasiga quyidagicha ta'rif beradi. „Xotira atrof-muhitdagi voqealik (narsa) ni bevosita va bilvosita, ixtiyoriy va ixtiyorsiz ravishda, passiv va faol holda, reproduktiv va produktiv tarzda, verbal va noverbal shaklda, mantiqiy va mexanik yo'l bilan aks ettiruvchi esda olib qolish, esda saqlash, qayta esga tushirish, unutish hamda tanish hissidan iborat psixik jarayon. Alohida va umumiylik namoyon qiluvchi ijtimoiy hodisa barcha taasurotlarni ijobiy qayta ishlashga yo'naltirilgan mnemik faoliyatdir“. o'zlashtirilgan ma'lumotlarni saqlash va ularni qayta ishlash qobiliyatidir. Bu qobiliyat o'quvchilarning yangi ma'lumotlarni o'rganishdagi muvaffaqiyatini belgilaydi. Masalan, o'quvchilar dars davomida olingan ma'lumotlarni eslab qolish orqali ular ustida ishlashni davom ettirishlari mumkin. Esab qolish jarayoni esa, ko'pincha,

ma'lumotlarni takrorlash va ularga qayta murojaat qilish orqali kuchayadi.

Ikkinchidan, diqqat qobiliyati o'quvchilarning ma'lumotlarga e'tibor berish va ularni ajratish qobiliyatini anglatadi.

Diqqat: psixik faoliyatning yo'naltirilishi va shaxs uchun ma'lum ahamiyatga ega bo'lgan ob'ekt ustida to'planishdan iborat bilish jarayonidir. Yonaltirish deganda psixik faoliyatning tanlovchanlik tabiati, ob'ektni ixtiyoriy va beixtiyoriy tanlash tushuniladi. O'quvchi maktabda o'qituvchi gapirayotgan gaplarni eshitib o'tirganda mana shu eshitib o'tirish faoliyatini ongli ravishda tanlab olgan, uning diqqati ongli ravishda qo'zg'algan shu maqsadga bo'ysundirilgan bo'ladi. Diqqat tushunchasiga olimlar tomonidan bir qator ta'riflar keltirilganligini ta'kidlash mumkin. P.I.Ivanov tomonidan „Diqqat deb ongni bir nuqtaga to'plab muayyan bir ob'ektga aktiv qaratilishda aytiladi“. O'quv jarayonida diqqatni to'g'ri yo'naltira olish, o'quvchilarga muhim ma'lumotlarni ajratishga yordam beradi va shu bilan birga, ularning kognitiv yukini kamaytiradi. O'quvchilar diqqatlarini bir joyga to'planganda, ularning o'rganish samaradorligi oshadi. Diqqat jarayoni kognitiv qobiliyatlarni shakillantirishda va rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Uchinchidan, muammoni hal qilish qobiliyati o'quvchilarning muammolarni aniqlash va ularga yechim topish qobiliyatidir. Bu tafakkur jarayonlari bilan bog'liq qobiliyat.

Tafakkur: inson aqliy faoliyatining yuksak shaklidir. Tafakkur orqali biz sezgi a'zolarimiz bilan bevosita aks ettirib bo'lmaydigan narsa va hodisalarni organizimda aks ettiramiz. Umuman olganda tashqi muhitdagi narsa va hodisalar o'rtasida ko'z bilan ko'rib, quloq bilan eshitib bo'lmaydigan ichki munosabatlar hamda qonuniyatlar mavjud. Ana shu ichki bog'lanish hamda qonuniyatlarni biz tafakkur orqali bilib olamiz. Demak tafakkur deb narsa va hodisalar o'rtasidagi eng muhim bog'lanishlar va munosabatlarning ongimizda aks ettirilishiga aytiladi. Aynan tafakkur orqali biz moddiy olamdagi narsa va hodisalarning mohiyatini bilish imkoniga ega bo'lamiz. M.V. Gamezo tomonidan „ tafakkur voqealikning umumlashgan holda va so'z hamda o'tmish tajriba vositalarida aks ettirilishi“ ekanligini bayon qiladi. A.V. Petrovskiy „ Tafakkur ijtimoiy sababiy, nutq bilan chambarchas bog'liq muhim bir yangilik qidirish va ochishdan iborat psixik jarayondir, boshqacha qilib aytganda, tafakkur voqealikni analiz va sintez qilish, uni bevosita va umumlashtirib aks ettirish jarayonidir“. Tafakkur jarayonlari insonning bilishga bo'lgan ehtiyojlari, tevarak-atrofdagi olam va turmush to'g'risidagi o'z bilimlarini kengaytirishga va chuqurlashtirishga intilish sababali vujudga keladi. Tafakkur ayniqsa, matematik va mantiqiy fanlarda juda muhimdir. O'quvchilar muammolarni hal qilish jarayonida o'z fikrlarini tartibga solish va mantiqiy xulosalar qilishni o'rganadilar. Bu qobiliyat o'quvchilarning analitik fikrlashini rivojlantirishga yordam beradi. Tafakkur jarayoni kognitiv qobiliyatlarni shakillantirishda va rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. To'rtinchidan kognitiv qobiliyatlarni shakillantirishda sezgi jarayoning ham o'rni katta, o'rganish qobiliyati yangi ma'lumotlarni o'zlashtirish jarayonini ifodalaydi. O'rganish jarayoni ko'plab metodlar va yondashuvlarni o'z ichiga oladi, masalan, vizual, audial yoki kinestetik o'rganish usullari. Har bir o'quvchining o'rganish usuli har xil bo'lishi mumkin, shuning uchun ta'lim jarayonida har bir o'quvchining o'rganish usulini hisobga olish muhimdir. Ya'ni kimdadir ko'rish sezgisi, kimdadir eshitish, kimdadir teri taktil sezgilari ya'ni kinestetik sezgilar yaxshi rivojlangan bo'ladi. Shularni inobatga olib ta'lim jarayonini tashkil qilishsa maqsadga muvofiq bo'ladi.

Sezgi: bizni o'rab turgan tashqi olamdagi narsa va hodisalarning juda ko'p belgi va xususiyatlari mavjud. Masalan, narsalarning rangi, ta'mi, hidi, qattiq yoki yumushoqligi, g'adir –budur yoki tekisligi, harorat va boshqalarni his qilshimiz sezgi deb ataladi. Sezgi bilish jarayonlari ichida oddiy psixologik jarayon bo'lib, tashqi olamdagi narsa va hodisalarni aks ettiradi. Tashqi olamdan kelayotgan qo'zg'atuvchilarning muayyan reseptorlarga bevosita ta'sir etish orqali ayrim belgi va xususiyatlarni, organizm ichki holatini aks ettiradi. Ma'lumki, insondan sezishning dastlabki bosqichi hissiy bilishdan boshlanib, keyinchalik u mantiqiy

bilishga o'tadi. Sezgi axborotlarni qabul qilib, tanlab, to'plab, har bir sekunda axborotlar oqimini qabul qilib va qayta ishlab miyaga yetkazibberadi. Sezgilarning yuzaga kelishi ma'lum qonuniyatlarning asosida yuz beradi. Sezgilari biror bir sezgi a'zosining qo'zg'alishidan hosil bo'ladi. Qo'zg'atuvchi reseptorga ta'sir etishi bilanoq sezgi hosil bo'lmaydi. Qo'zg'atuvchi ta'sir eta boshlaganidan bir necha vaqtdan keyin sezgi hosil bo'ladi. Kognitiv qobiliyatlarni rivojlantirishda bevosita sezgi a'zolarimizni o'rni muhim hisoblanadi.

Kognitiv qobiliyatlarning rivojlanishi o'quvchilarga yuqori darajadagi ijodkorlik va tanqidiy fikrlash qobiliyatini oshirishga yordam beradi. Bu esa, o'z navbatida, ularning kelajakdagi muvaffaqiyatlariga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun, ta'lim jarayonida kognitiv qobiliyatlarni rivojlantirish ustuvor vazifa bo'lib qoladi.

Kognitiv qobiliyatlarni rivojlantirish ta'lim jarayonida muhim ahamiyatga ega, chunki bu jarayon o'quvchilarning o'z-o'zini boshqarish qobiliyatlarini, mustaqil fikrlashlarini va muammolarni hal qilish ko'nikmalarini oshirishga xizmat qiladi. Kognitiv qobiliyatlar - bu fikrlash, o'rganish, eslab qolish, muammoni hal qilish va diqqatni jamlash kabi aqliy faoliyatlarni o'z ichiga oladi. Ushbu qobiliyatlarni rivojlantirish jarayoni ta'lim tizimida o'quvchilarga yanada samarali bilim olish imkonini yaratadi.

Innovatsion metodlar: Kognitiv qobiliyatlarni rivojlantirish uchun bir qator metod va strategiyalar mavjud. Birinchidan, ta'lim jarayonida interaktiv yondashuvlar, masalan, guruhli ishlar, muammoli vazifalar va diskussiyalar o'quvchilarning faol ishtirokini rag'batlantiradi. Bunday yondashuvlar o'quvchilarning fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi, chunki ular bir-birlari bilan fikr almashish, yangi fikrlar ishlab chiqish va o'z fikrlarini ifodalash imkoniyatiga ega bo'lishadi. Kognitiv qobiliyatlarni rivojlantirish uchun interaktiv metodlar o'quvchilarning fikrlash, tahlil qilish va muammolarni yechish qobiliyatlarini oshirishda samarali vosita hisoblanadi. Quyidagi interaktiv metodlar kognitiv rivojlanishni qo'llab-quvvatlashda keng qo'llaniladi:

1. Muammo –bazaviy o'qitish o'quvchilarga real hayotdagi muammolarni hal qilish vazifasi beriladi, bu metod o'quvchilarning tahlil qilish, mantiqiy fikrlash va kreativ yechimlar ishlab chiqish qobiliyatlarini rivojlantiradi.

2. Tanqidiy fikrlash- o'quvchilarni tahliliy va tanqidiy fikrlashga o'rgatadigan metod. Ular o'quv materiallarini sinchiklab tahlil qilish, dalillarni baholash va qarorlar qabul qilishda faol ishtirok etadilar.

3. Raqamli va multimedia vositalari bilan interaktiv darslar: O'quvchilarga video, animatsiya, interaktiv taqdimotlar va onlayn simulyatsiyalar orqali o'quv materiallarini taqdim etish. Bu usul o'quvchilarga tasavvur qilish, analiz qilish va mazmuni chuqurroq o'rganish imkoniyatini yaratadi.

4. Rol o'ynash: O'quvchilar turli rollarda ishtirok etib, muayyan vaziyatlarni o'rganadilar. Bu metod ularning ijtimoiy qobiliyatlarini, muammoni hal qilish va qarorlar qabul qilishda kognitiv faoliyatni rivojlantiradi.

5. Kollaborativ o'qitish: O'quvchilar guruhlariga bo'linib, birgalikda o'rganadilar va fikr almashadilar. Bunday metodlar o'quvchilarning tanqidiy fikrlash, muammo yechishda hamkorlikda ishlash qobiliyatlarini rivojlantiradi.

6. Diskussiya va brainstorming: O'quvchilar muayyan mavzu bo'yicha fikr almashish va yangi g'oyalarni ishlab chiqish uchun guruhlarda muhokama qiladilar. Bu metod o'quvchilarga mantiqiy tahlil qilish, fikrni aniqlik bilan ifodalash va boshqa fikrlarga nisbatan ochiq bo'lishni o'rgatadi.

7. Simulyatsiyalar va o'yinlar: Kompyuter yoki boshqa vositalar yordamida o'quvchilarga muayyan tizimlar yoki jarayonlarni simulyatsiya qilish imkoniyatini berish. Bu metod o'quvchilarga real hayotdagi vaziyatlarni tushunish va ularga javob berish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Odatda biror bir narsani yoki ma'lumotni o'rganish uchun real voqealarni sun'iy yaratadi ya'ni o'zini yolg'ondan biror ko'yg'a solish, mug'ombirlik qilish.

8. Debatlar: O'quvchilar o'z fikrlarini himoya qilish va boshqa fikrlarga qarshi

tahlil qilishda qatnashadilar. Bu metod tanqidiy fikrlash, argumentlarni tuzish va jamoaviy munozara olib borish qobiliyatlarini oshiradi.

Ushbu interaktiv metodlar o'quvchilarga kognitiv qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam berib, o'zlarini faol ishtirokchi sifatida darslarda qatnashishga rag'batlantiradi.

Ikkinchidan, texnologiyalarni ta'lim jarayoniga integratsiya qilish kognitiv qobiliyatlarini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Multimedia ta'lim, onlayn platformalar va o'yin asosidagi o'qitish metodlari o'quvchilarning e'tiborini jalb qilish va ularning o'rganish jarayonini yanada qiziqarli qilish uchun foydalaniladi. Masalan, o'yin asosidagi ta'lim strategiyalari o'quvchilarga muammolarni hal qilishda ijodkorlik va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishda yordam beradi.

Shuningdek, individual yondashuvlar ham kognitiv qobiliyatlarni rivojlantirishda muhimdir. Har bir o'quvchining kognitiv qobiliyatlari va o'rganish uslublari farq qiladi, shuning uchun ta'lim jarayonida individual ehtiyojlarga moslashish zarur. Bu, masalan, o'quvchilarga o'zlariga mos o'qish strategiyalarini tanlash imkonini berish orqali amalga oshirilishi mumkin. O'qituvchilar o'quvchilarni o'z qobiliyatlariga qarab yo'naltirish va qo'llab-quvvatlash orqali ularning kognitiv qobiliyatlarini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydilar.

Kognitiv qobiliyatlarni rivojlantirishda baholash va monitoring jarayonlari ham muhim ahamiyatga ega. O'quvchilarni baholash metodologiyalari yordamida ularning kognitiv qobiliyatlari va o'rganish natijalari ko'rib chiqilishi mumkin. Bu jarayon o'quvchilarga o'z yutuqlarini ko'rish, o'z-o'zini baholash va yanada samarali o'rganish uchun zarur bo'lgan ko'nikmalarni rivojlantirish imkonini beradi.

Kognitiv qobiliyatlarni rivojlantirish jarayonida mavjud bo'lgan qiyinchiliklar ham e'tiborga molikdir. Har bir o'quvchining individual qobiliyatlari va ehtiyojlari hisobga olinmasa, umumiy yondashuvlar samarali bo'lmasligi mumkin. Hususan ta'lim muassasalarida o'rganuvchilarni kognitiv qobiliyatlarini tashhislaydigan aniq bir metod ishlab chiqilmagan. **Xulosa** qilib aytganda, kognitiv qobiliyatlarni rivojlantirish ta'lim jarayonining asosiy elementlaridan biridir. O'quvchilarning o'z-o'zini boshqarishiga, mustaqil fikrlashiga va muammolarni hal qilish qobiliyatini yaxshilashga yordam beradigan bu jarayon, kelajakdagi muvaffaqiyatlarida muhim rol o'ynaydi. Ta'lim jarayonida kognitiv qobiliyatlarni rivojlantirish uchun innovatsion metodlar va strategiyalarni ishlab chiqish va ularni amaliyotga joriy etish zarur.

O'quvchilarning kognitiv qobiliyatlarini rivojlantirish uchun aniq strategiyalar va metodologiyalar ishlab chiqish, shuningdek, o'quv jarayonida o'zgarishlarni amalga oshirish uchun o'qituvchilar malaka oshirishi zarur hisoblanadi. Kognitiv qobiliyatlarni rivojlantirishga qaratilgan tadqiqotlar nafaqat ta'lim jarayonini yaxshilaydi, balki o'quvchilarning kelajakdagi muvaffaqiyatlarini ham ta'minlaydi.

Ushbu tadqiqot orqali kognitiv qobiliyatlarning ta'lim jarayonidagi o'rni va ahamiyati yanada ravshan bo'ldi. Kognitiv qobiliyatlar ta'lim tizimlarida o'quvchilarning muvaffaqiyatli o'qishi va rivojlanishi uchun zarur bo'lib, ularni rivojlantirishga qaratilgan tadqiqotlar va amaliyotlar muhim ahamiyatga ega. Shunday qilib, kelajakda kognitiv qobiliyatlarni rivojlantirishga qaratilgan tadqiqotlar va innovatsion yondashuvlar ta'lim jarayonini yanada samarali qilishga yordam beradi va o'quvchilarning barcha sohalarda muvaffaqiyatli bo'lishlarini ta'minlaydi. Qisqa qilib aytganda kognitiv qobiliyatlarni ta'lim jarayonida samarali qo'llay olish o'qituvchi va o'quvchilarni zerikarli ta'lim muhitidan faollashgan va jadallashgan ta'limiy muhitga olib o'tadi va shahsiy kompetensiyalarini rivojlantirishda katta yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. A.D Saloxidin o'g'li Kognitiv ta'lim nazariyasi va rivojlanishi: Nodavlat oliy ta'lim misolida. 2023-yil
2. F.I.Xaydarov, N.I. Xalilova Umumiy psixologiya darslik Toshkent 2010
3. Jalilov, A. A. Kognitiv qobiliyatlar va ta'lim jarayoni. O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi, 2021
4. Muminov, A. Kognitiv qobiliyatlarni baholashning muammolari va istiqbollari. O'zbekiston Ta'limi, 2019
5. Nazarov, S. M. Kognitiv psixologiya va ta'lim: nazariy va amaliy jihatlar. Toshkent Davlat Universiteti, 2020
6. Sirojiddinov, A. R. O'quvchilarning kognitiv qobiliyatlarini rivojlantirish metodlari. Ta'lim va Innovatsiya, 2022
7. Toshpulatova R. A. O'qitish jarayonida emotsional omillar. O'qtuvchilar uchun ilmiy maqolalar toplami. 2021-yil
8. Xudoyberdiyev A.A Shaxsiylashtirilgan o'qitish srategiyalari: nazariy va amaliy jihatlar. O'zbekiston ta'limi va innovatsiyalar. 2020-yil
9. Yusupov. I. Kognitiv qobiliyatlar va o'quv jarayonidagi o'rni. Pedagogika va Psixologiya Jurnali, 2023



INNOVATIVE
ACADEMY